

ABDULLA ORIPOVNING “O’ZBEKISTON” QASIDASI

Abduqodirova Nozima Akmal qizi

*Alisher Navoiy nomidagi O’zbek tili va adabiyoti
universiteti, O’zbek tili ta’limi fakulteti, “O’zga tilli
guruhlarda o’zbek tili” ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola o’zbek she’riyatining betakror siymosi, o’ziga xos uslub sohibi, o’zining ajib dunyosiga ega, xalqimizning suyukli farzandi Abdulla Oripovning “O’zbekiston” qasidasiga bag’ishlanadi.*

Abdulla Oripov – rostgo’y ijodkor sifatida xalqimizning quvonchiga ham, dardu g’amiga ham birdek sherik. Shunga ko’ra, uning ijodida shodlik va quvonch tuyg’usi ko’pincha tashvish, dardu alam tuyg’usi bilan uzviy birlikda namoyon bo’ladi.

Kalit so’zlar: *Milliy ruh, hurfiklik, ona vatan, o’jizlik, sof tuyg’ular, g’ururbaxsh, erkinlik.*

Abdulla Oripov – noyob iste’dod egasi. Chuqur falsafiy, milliy ruh, diniy- ahloqiy mezonlarga sadoqat shoir she’riyatini ko’p qismini tashkil etadi. O’zbek xalqining milliy tiklanishi, hurfiklik va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she’riyati katta o’rin egallaydi.

Abdulla Oripov universitetda o’qigan kezlari yozgan. Abdulla Oripovning “Bahor”, “Birinci muhabbatim”, “Kuz”, “Saraton”, “O’zbekiston”, “Munojotni tinglab”, “Otello”, “Sarob”, “Dengizga”, “Malomat toshlari”, “Oltin baliqcha”, “Yuzma-yuz”, “Genetika” va boshqa she’rlari – XX asrning ikkinchi yarmi o’zbek adabiyotining yorqin namunasi. Islom Karimovning ta’kidlashicha, Abdulla Oripov she’riyatining bugungi ma’naviyat va ma’rifat taraqqiyoti bosqichi muhim ahamiyatga egadir. Uning eng tasirchang va vatanimizga bo’lgan sof tuyg’ularini, o’zgacha mehrini bildirib turuvchi she’ri bu “O’zbekiston” qasidasidir.

“O’zbekiston” qasidasi hajman salmoqli, har biri 10 satrlik 14 banddan iborat. Jami 140 satr. Banddagi toq va juft satrlar o’zaro qofiyalanib kelgan. Har bandning so’nggi bayti bir-biri bilan qofiyalanadi. Abdulla Oripov bu she’rni g’oyat muhim mavzuga ona vatanimizning sha’niga bag’ishlab yozgan.

Shoir yurti haqida she’r bitmoqchi. Uni dunyoning eng go’zal maskanlariga qiyoslab ko’rsatmoqchi. Yo’q, unday joy yo’q ekan. Hatto behishtni ham unga o’xshatib bo’lmaydi. Bu yurt – beqiyos. U – bitilmagan doston. Uni ta’rif qilmoqqa qalam o’jizlik qiladi. Qasidaning har bir bandi «o’zbekiston – Vatanim manim!» degan g’ururbaxsh satr bilan yakunlanadi.

Yurtim, senga she’r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor, o’z yurtin butun
Olam aro atagan tanho.
Ular she’ri uchdi ko’p yiroq,
Qanotida kumush diyori,
Bir o’lka bor dunyoda biroq,
Bitilmagan dostondir bori:



Faqat ojiz qalamim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

She‘rning quyidagi satrlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak. Shoir vatanini madh etish uchun qo‘liga qalam olgan mahali vatanini tariflashga xech qanaqa so‘z topa olmaydi. Bu haqida yozishga xatto qalamim ham ojiz deb yozadi.

Bu she‘r yana bir mashhur shoirimiz Erkin Vohidovning “O‘zbekim” qasidasi bilan deyarli bir vaqtda yozilgan bu xalqimizning o‘zligini anglashga juda katta yordam berdi.

Vatan haqida juda ko‘p she‘rlarni o‘qiganmiz. Menga hammasidan ham ko‘proq yoqqani bu “O‘zbekiston” qasidasi. Bu qasidani har gal o‘qiganimda Vatanimizga bo‘lgan o‘zgacha tuyg‘larni his qilaman. O‘zbekiston degan jannatmakon o‘lkada tug‘ilganimdan juda hursandman, vatanim bilan faxrlanaman.

FOYDALANILGAN INTERNET SAYITLARI:

- 1) <https://ilmlar.uz/abdulla-oripov-hayoti-va-ijodi-sherlari-asarlari-haqida/>
- 2) <https://arboblar.uz/uz/people/oripov-abdulla>
- 3) <https://www.savol-javob.com/abdulla-oripov-ozbekiston-qasidasi-haqida/>